

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIYEVA NAFISA ZARIFOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARNING  
KONSEPTUAL-CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**  
**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology**

**Ruziyeva Nafisa Zarifovna**

Ingliz va o‘zbek tillarida evfemizmlarning konseptual-chog‘ishtirma tadqiqi..... 5

**Рузиева Нафиса Зарифовна**

Концептуально-сопоставительное исследование эвфемизмов в английском и узбекском языках..... 22

**Ruzieva Nafisa Zarifovna**

Conceptual-comparative Study of Euphemisms in English and Uzbek languages..... 44

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 48

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIYEVA NAFISA ZARIFOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARNING**  
**KONSEPTUAL-CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.3.PhD/Fil1991 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Haydarov Anvar Askarovich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Jo'rayeva Malohat Muxammadovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Xodjayeva Dilafro'z Izzatilloevna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « 28 » dekabr soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (379 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 15 » dekabr kuni tarqatildi.  
(2023-yil « 15 » dekabr dagi 23-34 - raqamli reestr bayonnomasi.)



**D.S.O'rayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**M.M.Jo'rayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida til imkoniyatlaridan amaliy foydalanish, uning nutqda qo'llanilishi va ma'no-vazifa xususiyatlari, lisoniy hodisalarning inson tafakkuri bilan bog'liqligi, shaxslararo kommunikatsiyada nutq madaniyati masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, til hodisalarining shakllanish omillari, etimologiyasi, ma'naviy guruhlari, vazifasi, milliy-ma'naviy hamda mental xususiyatlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqdaki, mazkur yo'nalishning asosiy obyekti madaniyat va til aloqadorligi, o'zaro ta'sirini tizimli ravishda yaxlit o'rganish, o'z navbatida, madaniy nutqning yetakchi elementi hisoblangan va axloqiy, madaniy jihatdan ishlatilishi noqulay yoki qo'pol bo'lgan so'zlar o'rnida qo'llanadigan evfemizmlarni qardosh bo'lmagan ikki til – ingliz va o'zbek tillarida chog'ishtirma tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi. Bunda kommunikativ, konseptual-kognitiv asosda talqin qilish ularning pragmatik o'ziga xos g'ayritabiiy xususiyatlarini lison va nutq ziddiyatida tatbiq etish imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida va lingvomadaniyatida til va madaniyat, til va ma'naviyat, til va muloqot munosabati masalalariga e'tiborning kuchayganligi ularni o'zida yaqqol aks ettiruvchi evfemizmlarning lingvomadaniy birlik sifatida e'tirof etilishi, uning nazariy asoslarini o'rganish, tilda mavjud evfemizm va tabu so'zlar munosabati, ularning tasnifi, nutqiy pragmatikasi, leksik birliklarga munosabatini o'rganish va tahlil qilishga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Nutqning bunyodkorlik kuchi asosida paydo bo'lgan til birliklari, jumladan, evfemizmlar, ularning nutqiy ko'rinishlari, evfemizmlarning lisoniy imkoniyat darajasiga ko'tarilishi masalalari, insonning nutq madaniyatiga, ijtimoiy ongiga, tolerantlik ruhiyatiga ta'siri va lingvomadaniy, kommunikologik va konseptual qonuniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi ma'naviyatimizga e'tibor qaratilishining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilganidandir. Tilimiz xalqimiz ijtimoiy hayotida ahamiyatga molik bo'libgina qolmay, balki, davlat miqyosda ham o'zbek tiliga e'tibor kuchaytirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarni puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlariga, san'at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim. O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Hozirgi ochiqlik siyosati, chet el investitsiyalari va yangi korxonalarining ortib borayotgani yoshlarimizni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o'rganishga undash zarurati tilshunoslar oldiga jahon andozalariga mos yangi vazifalarni belgilab berdi"<sup>1</sup> degan fikrlarini alohida qayd etish lozim. Shu ma'noda evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy tadqiq etish, chog'ishtirma tilshunoslik sohasini nazariy qarashlar, yechimlar bilan boyitishga yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси, // "Халқ сўзи" 2022 йил 21 декабр. №272(8334).

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida evfemizmlar, shuningdek, tabu so‘zlar etnolingvistikaning o‘rganish obyekti bo‘lib, ularga XVIII asrda I.T.Gerder<sup>2</sup> hamda XIX asrning birinchi yarmida V.fon Gumboldt<sup>3</sup> tomonidan tilshunoslik faniga til birliklari sifatida kiritilgan. Evfemizm lingvistik tushunchani tatbiq qilishda jahon tilshunosligida L.A.Bulaxovskiy, A.A.Reformatskiy, B.A.Larin, L.P.Krisin, V.P.Moskvin, V.Z.Sannikov, E.E.Tyurina, N.S.Bolotnova, Z.Z.Kikvidze, L.V.Artyushkina, T.V.Kochetkova, T.V.Boyko, T.S.Bushuyevalar<sup>4</sup>ning xizmatlari beqiyos.

Rus tilshunosligida A.M.Katsev, N.S.Boschayeva, L.N.Saakyan, Yu.S.Baskova, E.O.Miloyenkolar<sup>5</sup>ning ilmiy tadqiqotlarida ushbu lingvistik tushunchaning muayyan

<sup>2</sup> <https://www.projekt-gutenberg.org/herder/humanita/chap001.html>

<sup>3</sup> Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – 448 с.

<sup>4</sup> Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М, 1953. – 105с.; Реформатский А.А. Введение в языкознание.– М., 1967. –110с.; Ларин В.А. Об эвфемизмах Проблемы языкознания – М.: МГУ, 1961. – 89с.; Крысин Л. П. Можно ли по речи узнать интеллигента? // Общественные науки и современность. 2004. № 5. –С. 157-164.; Москвин В. П. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры. Терминологический словарь. Архивировано 17 ноября 2020 года.; Санников В.З. Морфологический компонент лингвистического процессора // Всесоюзная конференция по искусственному интеллекту. Тезисы докладов. – Переславль-Залесский, 1988.– С.56-72.; Тюрина Е.Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка (на материале английского языка): Автореф.дис.канд.филол.наук. –Нижний Новгород, 1998. –18 с.; Болотнова Н.С. Эвфемизация в современном словоупотреблении и языковая компетенция личности//Языковая компетенция. –Новосибирск,1998.4.1. –С.19-23.; Киквидзе З.З. Социолингвистический аспект изучения грамматического эвфемизма в разносистемных языках//Актуальные проблемы лингвистики и лингводидактики. –Тюмень, 1997. –С.38-42.; Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: Автореф.дисс....канд.филол.наук. –М.2001. –17с.; Кочеткова Т.В. Эвфемизмы в речи носителя элитарной речевой культуры//Вопросы стилистики. –Саратов,1998.–Вып.27.–С168-178.; БойкоТ.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: Автореф.дисс...канд.филол.наук.–М.:2005.–38с.; Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Смоленск, 2019. –С.42.; Санников В.З.Русский синтаксис в семантико-прагматическом пространстве. –М.: Языки славянских культур, 2008. –624 с.

<sup>5</sup> Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. –М.:1988. –86с.; Босчаева Н.Ц. Эвфемистичность в диалогической речи.–Л.:ЛГУ,№4,1989.–С.79-81.;Саакян Л.Н.Эвфемия как прагмалингвистическая категория в дискурсивной практике непрямого речевого убеждения: Автореф.дисс...канд.филол.наук. –Москва,2010. –24с.; Баскова Ю.С. Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ. (на материале русского и английского языков):

jihatlari yoritilgan. Shuningdek, tabulashgan va evfemizmlashgan leksik birliklarning xususiyatlari rus va xorijiy tilshunoslar J.Eytoning “Evfemizmlar”<sup>6</sup>, “Tabu va evfemizmlar leksikasining inglizcha-ruscha lug‘ati”, M.A.Katsevning “Til tabusi va evfemiya”<sup>7</sup>, B.A.Larinning “Evfemizmlar haqida”<sup>8</sup>, S.Vidlaksning “Til nazariy maydoni fonida evfemizmlarning roli”<sup>9</sup> asarlarida tadqiq etilgan.

L.A.Bulaxovskiy, A.A.Reformatskiy, B.A.Larin evfemizmi tarixiy nuqtayi nazardan qadimiy tabu asosida o‘rgangan. Rus tilida evfemizmlashuvning vosita va maqsadlarini tasvirlash bilan L.P.Krisin, V.P.Moskvin, V.Z.Sannikov, E.P.Senichkina shug‘ullangan.<sup>10</sup> A.M.Katsev, N.S.Boschayeva, N.L.Saakayan, Y.S.Baskova va E.O.Miloyenkolar<sup>11</sup> dissertatsiyalarida ingliz va rus tillaridagi evfemizmlarning xususiyatlarini, G.A.Vildanovanning «Эвфемия и принцип вежливости в современном английском языке: гендерный аспект»<sup>12</sup> nomli dissertatsiyasida ingliz tili evfemizmlarining gender jihatlari atroflicha yoritgan, N.Baskakov<sup>13</sup> esa oltoy xalqlari tillaridagi evfemistik nominatsiyalarning muammolarini ochib bergan.

Shuningdek, qozoq tilshunosi Adil Axmedov o‘zining “Qazaq tilindegi men evfemizmdir” nomli nomzodlik va “Turki tillerindegi tabu men evfemizmlar” nomli doktorlik dissertatsiyalarida turkiy tillardagi tabuning etnolingvistik asoslarini belgilab, ularni tasnifi, hosil bo‘lish usullari hamda nutq madaniyati rivojida roli va o‘rnini belgilab, asoslab bergan.

O‘zbek tilshunosligida esa ushbu lingvistik tushuncha birinchi marta Ne‘mat Ismatullayev tomonidan tadqiq etilgan<sup>14</sup>. Anvar Omonturdiyev chorvador nutqi misolida evfemizmlarni o‘zining doktorlik dissertatsiyasida atroflicha o‘rgangan<sup>15</sup>. N.Ismatullayevning “Zamonaviy o‘zbek tili efemizmlari”<sup>16</sup> ilmiy ishida, B.O‘O‘rinboyev<sup>17</sup> ishlarida ham evfemizmlar haqida qimmatli fikrlar aytilgan. A.E.Mamatov o‘zining doktorlik dissertatsiyasida frazeologizmlarning evfemik va

---

Автореф.дисс...канд.филол.наук.–Краснодар, 2006.–24с.; Милоенко Е.О. Специфика функционирования эвфемизмов в индивидуальном лексиконе. Автореф. на соис.учен.степени кандидата фил.наук.-Курск, 2009, – 29с.

<sup>6</sup> Эйто Дж. Эвфемизмы. Англо-русский словарь лексики табу и эвфемизма. –М.:1994.

<sup>7</sup> Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. –М.:1988. –86с.

<sup>8</sup> Ларин В.А. Об эвфемизмах Проблемы языкознания.– М МГУ, 1961. – 89 с.

<sup>9</sup> Видлак С. «Проблема эвфемизма на фоне теорий языкового поля» (1965; 1967). –115с.

<sup>10</sup> Крысин Л. П. Можно ли по речи узнать интеллигента? // Общественные науки и современность. 2004. № 5. – С. 157-164.; Москвин В.П.Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка Изд. стереотип.–Москва, 2006.–255с.; Санников В.З. Морфологический компонент лингвистического процессора // Всесоюзная конференция по искусственному интеллекту. Тезисы докладов. –Переславль-Залесский, 1988.–С.56-72.; Сенчикова Е.П. Эвфемизмы русского языка.–Москва, 2006. –143с.

<sup>11</sup> Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. –М.,1988.-86с.; Саакян Л.Н. Эвфемия как прагмалингвистическая категория в дискурсивной практике непрямого речевого убеждения: Автореф.дисс...канд.филол.наук. –Москва, 2010.– 24с.; Баскова Ю.С. Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ. (на материале русского и английского языков): Автореф.дисс...канд.филол.наук.–Краснодар,2006.–24с.

<sup>12</sup> Вилданова Г.А. Эвфемия и принцип вежливости в современном английском языке: гендерный аспект. Монография.–Москва-Берлин: Директ-Медиа, 2015.–С.162.

<sup>13</sup> Баскаков Н. А. Пережитки табу и тотемизма в языках народов Алтая // Советская тюркология. –Баку. 1975. № 2. –С.3-7.

<sup>14</sup>Исматуллаев Н. Ҳозирги ўзбек тилида эвфемизмлар. ТошДПИ нинг "Илмий асарлари, 42-т., 1-китоб. 1963. – Б.3-59.

<sup>15</sup> Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик восталарнинг функционал хусусиятлари: Филол. фан.номз. ..дисс. –Т.,1997. – 176 б.

<sup>16</sup>. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук. –Т.: 1963. –19 с.

<sup>17</sup> Ўринбойев Б.Ў. Сўзлашув нутқи ва эвфемизм// Ўзбек тилининг айрим масалалари. –Тошкент, 1979. – Б.63.

disfemik shakllanishiga alohida e'tibor qaratgan<sup>18</sup>. X.B.Qodirova, Z.T.Xolmanova, D.Rustamova<sup>19</sup>lar ham ushbu lingvistik hodisa haqida fikrlar bildirgan, Sh.Q.Shamsiyeva<sup>20</sup> esa xitoy va o'zbek tillaridagi evfemizmlarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etgan. Bundan tashqari, N.G'aybullayeva<sup>21</sup> tibbiy evfemizmlarni davriy nashr materiallari asosida o'rgangan bo'lsa, Sh.G'ulomova<sup>22</sup> e'tiborni evfemizmlarning gender xoslanishiga qaratgan. Ta'kidlash zarurki, noqardosh ikki til – ingliz va o'zbek tillarida evfemizmlarni konseptual chog'ishtirma-qiyosiy tadqiqi muammolariga bag'ishlangan ishlar deyarli mavjud emas.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Buxoro davlat universitetining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Pragmalingvistika, funktsional tarjimashunoslik, va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlarni chog'ishtirish orqali ularga xos bo'lgan konseptual parametrlari hamda evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

har ikki tildagi evfemizm tushunchasining qamrovi, mohiyati va tadqiqotlarda bayon etilgan nazariy asoslarini belgilash va o'rganish;

ikki til doirasida evfemizmlarning qo'llanilishiga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash hamda ularning o'ziga xosligini va mavzu guruhlarini ochib berish;

axloq normalariga zid va aksincha, hurmat va nafosatni ifodalovchi evfemizmlarni qiyosiy-tipologik usul yordamida yoritish va tasniflash;

noqardosh tillarda evfemizmlarda milliy olam manzarasining aks etishini belgilash va evfemizmlarning konseptual parametrlarini aniqlash;

qiyoslanayotgan tillarda evfemizmlarning mushtarak va farqli jihatlarini asoslab ko'rsatish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan evfemik til birliklari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlarning leksik-semantik hamda konseptual xususiyatlarini qiyosiy o'rganish tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, konseptual, kontekstual-komponent, deskriptiv, tasniflash, kompleks va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

<sup>18</sup> Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари д-ри... дисс.–Т., 1999. – 123с.

<sup>19</sup> Қодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т.: 2011.; Холманова З.Т. Бобурнома лексикаси тадқиқи: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Т., 2009. –52б.; Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017. – 51б.

<sup>20</sup>Шамсиева Ш.Қ. Хитой ва ўзбек тилларидаги маиший эвфемизмларнинг лнгвомаданий тадқиқи: Филол.фан.фалсафа.докт.авторереферати. – Т.: 2020. – 53 б.

<sup>21</sup> Гайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашрлар асосида): Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори дисс... автореферат. – Бухоро, 2019. –50 б.

<sup>22</sup> Фуломова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол.фан.бўй.фалсафа доктори дисс... автореф. –Бухоро, 2019. –59 б.

muloqot jarayonida evfemizmlar inson kognitiv tajribasining ajralmas qismi ekanligi, ular faqatgina ijobiy va salbiy konnotatsiyalardan iborat semantik struktura emas, aksincha, baholash va qayta baholash mezonlari ta'sirida o'z tabiatini o'zgartira olish imkoniyatini voqelantira olishi dalillangan;

insonning nutq madaniyatini, ijtimoiy ongini, tolerantlik ruhiyatini, muzokara yuritish qobiliyatini, kommunikativ intensiyasini, tabiiy muloqot o'rnatish tamoyillarini belgilashda evfemik til birliklarida mujassamlashgan lingvomadaniy, kommunikologik va konseptual jihatlar ustuvorligi asoslangan;

ikki qardosh bo'lmagan tillardagi evfemik vositalarning uslubiy-funksional qiymati nutq mundarijasi, dennotat voqelik, obrazlilik, ekspressiv-emotsionallik, satira va yumoristik, etik-estetik me'yoriylik kabi konnotat ma'no kategoriyalari ustivorligida namoyon bo'lishi asoslangan;

qiyoslanayotgan tillardagi evfemizmlarning konseptual parametrlari inson tafakkurining aytilishi noqulay, noxush bo'lgan, voqeliklarning salbiy ta'sirini xotiradan uzoqlashtirish, jargon va argotik kabi noadabiy til vositalari, to'g'ridan-to'g'ri gapirish mumkin bo'lmagan lingvistik tushunchalar orqali shartlanishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qardosh bo'lmagan ikki til - ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizm tushunchasi izohlanib, uning qamrovi va mohiyati, ingliz tilidagi evfemizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek tilidagi ushbu lingvistik tushunchaning shakllanishi va har ikkala tildagi evfemistik guruhlar o'rganilib, misollar orqali tasniflangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlarda milliy olam manzarasining aks etishi, milliy-madaniy jihatlari, leksik-semantik mohiyati, milliy-lisoniy, uslubiy xususiyatlari, ekstralingvistik va intralingvistik qiymati, kognitiv lingvistik talqini sifatidagi xususiyatlari o'zaro taqqoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga, tilshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalariga tayanilganligi tahlilga tortilgan materiallarning qiyosiy-tipologik, konseptual, kontekstual-komponent, deskriptiv, tasniflash, kompleks va lingvokulturologik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi; nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy tilshunoslikda evfemizmlarni kompleks o'rganishda, uning qamrovi va mohiyatini ko'rsatishda, milliy-madaniy jihatlarni taqqoslashda, ularning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashda va lingvopoetik tabiatini yoritishda, chog'ishtirma tilshunoslikning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishda va shu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi materiallar, ishning natija va xulosalaridan "Tarjima nazariyasi", "Chog'ishtirma tilshunoslik", "Lingvomadaniyatshunoslik", "Semantika va so'z tuzilishi", "Hozirgi o'zbek tili" fanlaridan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda, magistrlik hamda doktorlik disertatsiyalarini tayyorlashda, adabiyotshunoslik, tilshunoslik atamalari lug'atlarini takomillashtirishda, tarjimashunoslikdan maxsus kurs o'tishda qo'llanilishi

mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o'zbek tillarida evfemizmlarning konseptual-chog'ishtirma tadqiqi jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

muloqot jarayonida evfemizmlar inson kognitiv tajribasining ajralmas qismi ekanligi, ular faqatgina ijobiy va salbiy konnotatsiyalardan iborat semantik struktura emasligi, aksincha, baholash va qayta baholash mezonlari ta'sirida o'z tabiatini o'zgartira olishiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 17-oktabrdagi №17.01/211-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha ishtirokchilari va mutaxassislarining ingliz va o'zbek tillarida ishlatiladigan kommunikativ-lisoniy birliklar xususiyatlari haqidagi bilimlar bazasini yanada kengaytirishga asos bo'lib xizmat qilgan;

insonning nutq madaniyatini, ijtimoiy ongini, tolerantlik ruhiyatini, muzokara yuritish qobiliyatini, kommunikativ intensiyasi, tabiiy muloqot o'rnatish tamoyillarini belgilashda evfemik til birliklarining lingvomadaniy, kommunikologik va konseptual jihatlar ustuvorligiga oid xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2020-2021 yillarda bajarilgan A-OT-2021-2 "Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022-yil 5-dekabrda 04-04/01-2410-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotchi tomonidan to'plangan ayrim misollardan tibbiy evfemizmlar lug'atini yaratishda foydalanilgan;

ikki qardosh bo'lmagan tillardagi evfemik vositalarning uslubiy-funksional qiymati nutq mundariyasi, dennotat voqelik, obrazlilik, ekspressiv-emotsionallik, satira va yumoristik, etik-estetik me'yoriylik kabi konnotat ma'no kategoriyalari ustivorligida namoyon bo'lishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Intervyu plyus", "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" kabi turkum ko'rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 28-noyabrda 1/311-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan hamda ilmiy-nazariy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 160 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Evfemizmlar lingvomadaniyat birligi sifatida”** deb nomlangan boʻlib, uning ilk fasli “Evfemizmlarni oʻrganishning nazariy asoslari” deb atalgan. Bu faslda ingliz va oʻzbek tillaridagi evfemizmlarga boʻlgan ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan va ularga munosabat bildirilgan.

Tilshunoslikda evfemizm termini qadimgi davr estetikasi qonunlariga borib taqaladi. Ushbu qonunlarga koʻra evfemizmlar quyidagi hollarda qoʻllaniladi:

1. Evfemizmlar avvalo, qalb xotirjamligi belgisi sifatida undan soʻng esa nutq koʻrki sanaladi;

2. Evfemizmlar qoʻpol hatti-harakatlar va qoʻpol nutq oʻrnida qoʻllaniladi;

3. Evfemizmlar insonning maʼnaviy va madaniy jihatdan oʻsishi ramzidir.

Oʻrta asrlarga kelib evfemizmlarni quyidagi uch guruhga boʻlib tahlil qilish boshlandi:

1) xurofot va tabu tufayli bir soʻzni ikkinchisiga almashtiruvchi soʻzlar;

2) kamtarlik belgisi ostida ifodalanovchi soʻzlar;

3) etiket qoidalariga zid kelgan birliklar oʻrnida qoʻllaniluvchi soʻzlar<sup>23</sup>.

Birinchi guruhga tegishli evfemizmlar, asosan, biror shaxsga yoki holatga nisbatan yovuzlik, gʻarazgoʻylik, dilni ogʻritadigan holatlarni keltirib chiqaruvchi soʻzlar oʻrnida qoʻllanilgan. Masalan, ingliz tilida *die- pass away, join the majority*; oʻzbek tilida *oʻlmoq-tuproq quchmoq, dunyodan koʻz yummoq*.

Ikkinchi guruh evfemizmlari axloqiy tomondan ishlatishga zid boʻlgan soʻzlar (jinsiy mayl yoki ogʻir kasallikka oid boʻlgan birliklarni) oʻrnida qoʻllanilgan. Jumladan, *qovushmoq, bir tanaga aylanmoq* kabi.

Uchinchi guruhda etiket qoidalariga zid kelgan birliklar oʻrnida ishlatiluvchi evfemizmlar, asosan, XI asrlarda paydo boʻlgan, ularning qoʻllanilish sohasi koʻproq sheʼriyat (trubadurlar) olamida namoyon boʻladi.

“Evfemizm” terminining birinchi bor lugʻatda izohlash hodisasi XVII asr oʻrtalarida boshlandi. 1656 yilda Tomas Blauntning “Glossografiya: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words of Whatsoever Language, Now Used in Our Refined English Tongue” lugʻati nashrdan chiqdi. Unda evfemizm tushunchasi “a good or favorable interpretation of a bad word”<sup>24</sup> (“qoʻpol soʻzning yaxshi yoki ijobiy talqini) tarzida izohlanadi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “Evfemizmlarning til lugʻat boyligida oʻziga xos oʻrni va xususiyatlari” deb nomlanib, unda evfemizmning nutqda qoʻllanilishi va uning turlari haqida fikr yuritiladi. Evfemik nutq voqelikning tabulashish darajasiga

<sup>23</sup> Миронина А.Ю. Эвфемизм как явление языка и культуры. Лингвистика. 2010. – С. 85-89.

<sup>24</sup> Blount T. Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words Of Whatsoever Language, Now Used In Our Refined English Tongue. L.: Tbo, Newcomb, 1656. – P.677.

ko‘ra quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

a) nomini aytish uyat bo‘lgan, pornografik tushunchalarni izhor etishda qo‘llaniluvchi evfemalar. Masalan, “fohisha” tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladigan evfemalar: ingliz tilida, *a woman of easy virtue, a light woman, comfort woman, call girl, business girl, nimpha* (Lotin tilidan olingan). Jumladan, *She was a light woman, whom nobody respected.* (J.Lindsay, “All in the never-never”, p.204).

O‘zbek tilida ushbu so‘zni ifodalashda *ma‘naviyati bo‘sh, sal bejo yurmoq, yengil tabiat, gul kesmoq* kabi evfemik vositalar qo‘llaniladi. Masalan, *Mullo Qosimjon, sizning ayolingiz sal bejo yuradigan bo‘lubdur* (Hamza Hakimzoda, “Boy ila xizmatchi”).

b) noxush, sovuq, o‘lim haqidagi xabarlarga oid evfemalar. Ingliz tilida *die* (o‘lmoq) so‘zi *pass away, lost his life, breathed his last* kabi evfemik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, *The next day, his parents were flown to New Mexico by special Army plane, and they stayed at their son’s bedside, until he breathed his last.* (R. Lapp, “Atoms and People”. R.107)

O‘zbek tilida, *o‘lmoq* so‘zi o‘rniga *vafot etmoq, dunyodan (olamdan) o‘tmoq, dunyodan ketmoq, abadiy ko‘z yummoq, dorilfanodan dorilbaqoga ketmoq, narigi dunyoga ketmoq* kabi evfemizmlar orqali ifoda etiladi. Masalan, *Zaynabxon bilan Jalolovda keksalik alomatlari ko‘rinib qoldi. Uzoq yili Muslima buvi vafot etdi.* (Sh.Xolmirzaev. O‘n sakkizga kirmagan kim bor, 27-b.)

d) voqelikni aytish mumkin bo‘lgan, lekin nutq madaniyatiga mos kelmaydigan tushunchalar bilan bog‘liq evfemik vositalar. Masalan, *injener, farroshga murojaat qilganda “opa”, “singlim”* kabi so‘zlarni ishlatish (bunda opa, singlim so‘zlari begona ayolga nisbatan qo‘llaniladigan evfemik vosita hisoblanadi); inglizcha *sanitation engineer, custodian, caretaker (janitor) (deraza tozalovchi xizmatkor) so‘zlari o‘rnida transparent – wall maintenance officer* so‘zlarini qo‘llash evfemik birlikni ifoda etadi.

Evfemalar semantik-grammatik shakllanishiga ko‘ra lisoniy va nutqiy evfemalarga ajraladi.



1. Lisoniy evfemalar lug‘aviy birlik hisoblanadi va ular lug‘atlashtirilishi mumkin. Nutqiy evfema esa bunday xususiyatga ega emas. Masalan, *o‘lmoq* tushunchasini ifodalovchi *bandalikni bajo keltirmoq, halok bo‘lmoq, qurbon bo‘lmoq, oramizdan ketmoq* kabi evfemalarni lug‘atlashtirish mumkin, ular lisoniy evfemalar hisoblanadi. Ingliz tilidagi *heck (hell), sight-deprived (blind), barmy (idiot), needy (poor)* kabi evfemalar lug‘at tarkibidan joy olishi mumkin, shu sababli ular lisoniy evfemalar deb ataladi.

2. Nutqiy evfemalar faqat nutq jarayonida sodir bo‘ladi, ularni lug‘atlashtirish mumkin emas. Nutqiy evfemalar turlichalik, rang-baranglikni o‘zida mujassam etgan holda uzual va okkazional ko‘rinishga ega bo‘ladi.



1.	Evfemizm	“ <i>Evfemizm</i> ” grekcha <i>euphemeo</i> – “muloyim gapiraman” ma’nosida keladi.	<i>Qari-oqsoqol, yoshi ulug’ Old- senior citizen, mature</i>	Qo’pol, haqoratli, nutq odobiga zid keluvchi so’zlarni yumshatish, pardalash uchun evfemizmlar qo’llaniladi	Uchchala til hodisasi bir-biriga yondosh hodisa bo’lib, til leksik qatlamini boyitishga xizmat qiladi.
2.	Polisemiya	“ <i>Polysemos</i> ” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “ko‘p ma’nolarga ega” degan ma’noni anglatadi	<i>Chayon – oti yo‘q, eshak Er - o‘rtoq, Toilet – big house, water closet</i>	Ko‘chma ma’noni hosil bo‘lishi polisemiyaning yuzaga keltiradi.	
3.	Perifraza	“ <i>Perifraza</i> ” so‘zi grekcha so‘zdan olingan bolib, “tasviriy ifoda” ma’nosini anglatadi	<i>Tergovchi – izquvar, Yozuvchi-qalamkash; Earth – blue planet Oil- black gold</i>	Perifraza voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega.	

Jadval 1. Evfemizm, polisemiya va perifraza tushunchalari

Birinchi bobning uchinchi faslida “Evfemizm va tabu so‘zlar munosabati” haqida fikr yuritilgan. Tabu – Polineziya tillaridan kelib chiqqan bo‘lib, *ta* – “*ta’kidlash, belgilash, ajratish*” o‘zagiga *pu* – “*butunlay*” qo‘shimchasini qo‘shish orqali tapu/tabu – “*butunlay ajratilgan*” degan ma’noni ifoda etadi<sup>25</sup>. Ammo, Z.Freyd 1913 yilda nashr qilingan “Totem va tabu” kitobida tabu tushunchasining paradoksal xususiyatini, ya’ni uning bir vaqtning o‘zida ham “muqaddas”, ham “ta’qiqlangan, yovuz” ma’nolarini anglatishini ta’kidlagan<sup>26</sup>.

Ingliz olimi Dj.Frezer “*The Golden Bough*” (Oltin bo‘toq) kitobida inson va uning hatti-harakatiga, narsa va buyumlarga, inson ismlariga qaratilgan tabular haqida to‘xtalib o‘tadi<sup>27</sup>. Professor A.Ahmetov<sup>28</sup> tabuni etnografik (*putting the new shoes on the table, o‘qlov va supurgini tik qo‘ymaslik*) va lingvistik (*God - the Creator, Lord, the Almighty, Yorab, Iloh*) tabuga ajratadi.

Ikkinchi bob “**Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarni tasniflash masalalari**” deb nomlanadi. Birinchi fasl “Ingliz va o‘zbek tillarida evfemizmlarning tasniflanishi” deb atalgan. Evfemizmlarni mavzuviy tasniflanishida bir qancha olimlarning hissasi beqiyos. Quyidagi jadvalda xorijiy va mahalliy

<sup>25</sup> Жабборов И. Жаҳон этнологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2008. – 362 б.

<sup>26</sup> Фрейд З. Тотем и табу. Психология первобытной культуры и религии. – М., 1913. – 173с.

<sup>27</sup> Frazer J. Golden Bough. – London, 1922. – 625 p.

<sup>28</sup> Ахметов А. Туркі тілдеріндегі табу мен эвфемизмдер: Автореф.дис д-ра филол.наук. –Алматы.: Голкм, 1995. – С. 176.

tilshunos olimlarning tasnifiy guruhlarini keltiramiz:

<b>R.Holder</b>	60 ga yaqin evfemizmlar guruhini tavsiflagan
<b>A.M.Katsev</b>	1. G‘ayritabiiy kuchlar; 2. O‘lim, kasallik va boshqa ofatlar; 3. Aqliy va jismoniy kamchiliklar; 4. Axloqiy illatlar; 5. Jinoyatlar va ularning oqibatlari; 6. Qashshoqlik; 7. Jinsiy hayot va jismoniy buzqlik; 8. Ba‘zi fiziologik funksiyalar; 9. Tana a‘zolari; 10. Xojat buyumlari
<b>V.P. Moskvin</b>	1. Qo‘rquv uyg‘otadigan obyektlarni nomlarini almashtirish; 2. Yoqimsiz bo‘lgan, nafrat uyg‘otadigan obyektlarning ta‘rifini almashtirish; 3. Beadab bo‘lgan so‘zlarni almashtirish (maishiy); 4. Atrofdagilarni ajablantirish, hayratga solish qo‘rquvidan qochish maqsadda, asl nomlarni almashtirish; 5. Haqiqiy, asl ma‘noni niqoblash, yashirish uchun; 6. Past mavqeli tashkilot va kasbni anglatuvchi so‘zlar o‘rnini almashtirish.
<b>N.Ismatullayev</b>	1. Tabu bilan bog‘liq evfemizmlar (zaharli hasharot va yirtqich hayvonlar, kasalliklar nomlari, er-xotinning bir-biriga ismi bilan murojaat etmaslik hodisasi, xotin-qizlar orasida uchraydigan evfemizmlar); 2. Bid‘at, irim qilish bilan bog‘liq evfemizmlar; 3. Qo‘pol ma‘no yoki aytilishi noqulay bo‘lgan so‘zlar o‘rnida qo‘llanadigan evfemizmlar; 4. Nutqiy ko‘tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo‘llaniladigan jargon evfemizmlar; 5. Stilistik evfemizmlar.
<b>A.Omonturdiyev</b>	1. Sovchilik va oilaviy aloqalar bilan bog‘liq evfemistik vositalar; 2. Axloqsiz munosabatlar bilan bog‘liq evfemistik vositalar; 3. Jinsiy munosabatlar bilan bog‘liq evfemistik vositalar; 4. Obyektni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlamaydigan evfemistik murojaatlar; 5. Ayollar va erkaklarda jinsiy a‘zolarini ifodalashda qo‘llanadigan evfemistik vositalar; 6. Kasalliklarning nomlari va insonning ruhiy nuqsonlari bilan bog‘liq evfemistik vositalar; 7. Insonning ovqatlanishi va uning hazm bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan evfemistik vositalar; 8. Insonning salbiy faoliyati bilan bog‘liq evfemistik vositalar; insonning salbiy hodisalari va axloqiy kamchiliklari bilan bog‘liq evfemizmlar; 9. Xurofot, urf-odatlar, marosimlar bilan bog‘liq evfemizmlar; 10. Siyosiy nomlar doirasida qo‘llaniluvchi evfemistik vositalar; 11. Qarilikni ifoda etish uchun qo‘llanadigan evfemistik vositalar; 12. O‘lim bilan bog‘liq evfemizmlar; 13. Evfemistik sinonimiya masalalari.

Jadval 2. Ingliz va o‘zbek tillarida evfemizmlarning tasnifi

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning fikrlarini o‘rgangan holda, ularga tanqidiy yondashib, A.Omonturdiyevning tasnifiga yana quyidagi guruh

evfemizmlarini qo‘shishni taklif etdik. Hayot tendetsiyalarining rivojlanishi va hayotimizning barcha jabhalarida evfemizmlarning qo‘llanilishini inobatga olib, *atrof muhitga (ekologiya) oid evfemizmlar* guruhini tadqiqotimizga kiritishni lozim topdik.

*Atrof muhitga oid evfemizmlar* – ekotizim sohasiga tegishli bo‘lgan tushunchalarning tilda “*pardalash*”, “*yumshatish*”, “*yashirish*” kabi vazifalarni bajaruvchi evfemistik birliklar deb hisoblaymiz.(N.R.)

Tabiatda sodir bo‘layotgan *global issiqlashuv holati, iqlimning keskin yomonlashuvi* ma‘nolarini bir oz bo‘lsada “*pardalash*”, “*yashirish*”, “*yumshatish*” uchun *global problem* birikmasi o‘rniga *climate change* evfemik birligi qo‘llaniladi. Masalan, *Climate change impacts are seen throughout every aspect of the world we live in. However, climate change impacts are uneven across the country and the world - even within a single community, climate change impacts can differ between neighborhoods or individuals.* (National Oceanic and Atmospheric Administration <https://www.noaa.gov/education/resource-collections/climate/climate-change-impacts>. 22.08.22)

Bundan tashqari, ekologlar *ozon qatlamini – biologik qalqon* perifrastik evfemiya yordamida atashadi. Masalan, *Jahon ozon qatlami: ushbu biologik qalqon himoyaga muhtoj.* (Xalq so‘zi gazetasi – online. 14.09.2020)

Shu bilan birga, A.Omonturdiyevning ishlarini tanqidiy o‘rganib, *qarilikni ifoda etish uchun qo‘llanadigan evfemistik vositalar* tavsifiga javoban *yoshlikni ifoda etuvchi evfemizmlar* guruhini ham taklif etamiz. Ingliz tili lingvomadaniyati o‘spirinlik yoshiga yetganlar *boyish, girlish, juvenile, pubescent, burgeoning, puerile, growing, fresh, blooming* kabi evfemik vositalar orqali ifodalanadi. Jumladan, *That contest is about the strongest juvenile form around and he clearly sets the standard.* (The Sun, 2014. <https://www.collinsdictionary.com/sentences>, date: 11.10.22). *But Gendron has not been only the mildly pubescent White male - still wet behind the ears - or younger adult with a deeply rooted hatred toward Blacks and the desire to kill.* (Maia Niguel Hoskin, Forbes, 27 May 2022. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/pubescent>, date: 11.10.22)

O‘zbek tilida o‘smirlarning balog‘at yoshiga yetgani *balog‘atga yetmoq, yoshiga yetmoq, yetilmoq, to‘lmoq, ko‘zga tashlanib qolmoq, ko‘zga ko‘rinmoq, bo‘yi jo‘zilib qolmoq, yigitlar nazariga tushmoq, o‘n oltiga kirmoq, o‘n sakkizga kirmoq* kabi evfemistik vositalar yordamida ifodalanadi. Jumladan, *Bo‘yiga yetgan qiz bilan yigit bir-birlari bilan topishsalar, bunga hech kim qarshi kelmaydi* (S.Ayniy, Esdaliklar); *Qiziq, balog‘atga yetgan qiz muhabbatni emas, muhabbatning o‘zi uni izlab topadi deganlari rost ekan* (O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi).

Yuqorida tasniflar asosida biz evfemizmlarni 4ta yirik guruh doirasida ya‘ni, *ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, iqtisodiy va siyosiy* sohada tadqiq etishni lozim topdik. Shu asosda ikkinchi fasl “*Inson hayotining ijtimoiy va ma‘naviy-ma‘rifiy evfemizmlarda aks ettirilishi*” deb nomlanadi.

*1. Ijtimoiy evfemizmlar.* Ijtimoiy so‘zi kishilik jamiyatiga, uning hayoti va qonuniyatlariga oid<sup>29</sup> degan ma‘nolarni anglatib, ijtimoiy evfemizmlarga jamiyat hayotiga oid voqea va hodisalarni izohlovchi evfemizmlar kiradi. Shu o‘rinda ijtimoiy

<sup>29</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-5 –жилдлар.- Тошкент:ЎзМЕ, 2002- 2007.

yirik guruhi yana a) ijtimoiy tabaqalanish (*people of color, member of African diaspora, indigenous person (negro, latino Latina), golden ager, oqsoqol*); b) tibbiy (*disease-sifiliz, hospital, mental health clinic, kallasi aynigan*); d) diniy (*God - Gosh, Gee, Satan - Evil, die - pass away*); e) maishiy (*to glow, reek (bad smell)*) kabi kichik guruhlarga ajratildi.

2. *Ma'naviy-ma'rifiy evfemizmlar*. Kundalik muhitda, jamiyatda, odamlarning odob-axloqi, o'zini o'zi qadrlashi, nozikligi, milliy-madaniy xususiyatlari, ehtiyotkorligi, muloqot vaqtida qo'pol so'zlarni qo'llamaslikni oldini olish uchun qo'llanadigan evfemizmlar hisoblanadi. Shu o'rinda ushbu guruh ham a) insonning axloqiy nuqsonlari (*blow a gasket (axloqi buzuc), base head (narkotikka ruju qo'rgan), hiyla-nayrangchi, o'tin tashuvchi, qo'ng'iroq ovozi, iste'mol qilmoq, mazza qilmoq, tomoq xo'llamoq, qittay-qittay qilmoq, ignaga o'tirmoq, oq dori*); b) insonning tashqi ko'rinishi (*big, stout, overweight, big, heavy, curvy, fluffy, to'lacha, to'lachadan kelgan, novcha*) kabi kichik guruhlarga bo'lingan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli "Iqtisodiy va siyosiy sohalarga oid evfemizmlar mazmun mohiyatining turli manbalarda ifodasi"ga bag'ishlangan.

3. *Iqtisodiy evfemizmlarni* quyidagi a) bozor (*zero growth, negative growth, slowdown (iqtisodiy faollikning pasayishi)*); b) soliq (*tax relief, ustama haq (foiz)*); d) biznes (*Business ecosystems (biznes ekotizimlari), moliyaviy tanazzul*) kabi kichik guruhlarga bo'lib o'rganildi.

4. *Siyosiy evfemizmlar*. Biz siyosiy jarayonlarga bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi siyosatchilar nutqida qo'llaniladigan evfemik birliklarni ushbu tasnifga kiritdik va ularni ikki kichik guruhlarga ajratdik: a) harbiy soha evfemizmlari (*g. bomb – device, pacification (qurolli qarshilikni bartaraf etish), operatsiya (vazifa), obyekt (kuzatuv ostidagi shaxs), havo hujumi*). Bunday evfemizmlar "face-saving tactics"<sup>30</sup> xususiyatiga egadir; b) siyosatchilar nutqiga oid evfemizmlar.

Ikkinchi bobning to'rtinchi fasli "Evfemizmlarning nutq uslublarida qo'llanilishi" deb nomlanadi. Bu faslda evfemizmlarning quyidagi funksiyalari tahlil qilingan:

1. *Obrazlilik funksiyasi*. Bunda evfemizmlar nominativ yoki kommunikativ funksiya ifodalaydi. Masalan, *Sevgim osmonidan uchdi yulduzim* (Zulfiya "Kuylarim sizga") evfemik gapida *sevgim osmoni* – shoir qalbi, *uchdi* – o'ldi, *yulduzim* – Hamid Olimjon tushunchalarining ramzidir. *There's many a man hoeing tobacco over-seas that should be mounting his horse at his own door at home, many and many* (R.Stevenson "Kidnapped") (to live as he wants, as he wishes).

2. *Emotsional-ekspressivlik funksiyasi*. Bunda evfemizmlar inson his-tug'ularini ifodalashda emotsional bo'yoqdirlikni ko'rsatish xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, *Jonginam! U oltin kokilni unut*

*Endi u o'smaydi, toptalgani rost*. (Zulfiya "Kuylarim sizga") misrasida sevgilisining nomini – *jonginam*, qizning nomi – *oltin kokil*, nomussizlantirilgani – *o'smaydi, toptalgan* majoziy evfemalari orqali qizning holati va ichki tuyg'ulari ifodalangan, natijada, nutqiy ta'sirchanlikka erishilgan.

*The next day, his parents were flown to New Mexico by special army plane, and*

<sup>30</sup> Порохницкая Л.В. Концептуальные основания эвфемии в языке (на материале английского, немецкого, французского, испанского, итальянского языков) Автореф.дисс...на соис. учен. степени доктора филол. наук. - М.,2014. - 46с.

*they stayed at their son's bedside, until he breathed his last (to die) (R.Lapp “Atoms and People”)*

3. *Satira va yumor hosil qilish funksiyasi.* Nutqda hazil, mazah, piching, kesatiq, qochiriq kabi ochiq aytilishi lozim bo‘lmagan voqeliklar semali evfemik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, Amir Temur dushmanlariga *yo‘l bo‘lsin* deb murojaat etishi dushmanning ajaldan qochib qutila olmasligiga ishora bo‘lgan.

Uchinchi bob “**Ikki noqardosh tillarda evfemizmlarning konsept doirasida ifodalanishi**” deb nomlangan bo‘lib, birinchi fasli “Konsept kognitiv tilshunoslikning asosiy mezoni sifatida” deb ataladi. Konsept atamasi ilk marta 1928 yilda taniqli olim S.A.Askoldovning “Konsept va so‘z” risolasida qo‘llanilgan, lekin o‘tgan asrning o‘rtalariga qadar bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda atama sifatida qabul qilinmagan. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushuncha tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qildi.<sup>31</sup> Jahon tilshinosligida konsept tushunchasini o‘rganishda S.A.Askoldov<sup>32</sup>, V.Z.Demyankov<sup>33</sup>, D.S.Lixachevlarning<sup>34</sup> nazariy bilimlariga tayanilsa, o‘zbek tilshunosligida Sh.S.Safarov, D.U.Ashurova, A.E. Mamatov, G‘.M.Hoshimov, M.M.Raxmatovalarning xizmatlari beqiyosdir.

Konseptlar haqida fikr yuritilar ekan *konseptosfera* atamasiga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Ushbu termin *milliy konseptlarning jamlanmasi* degan ma‘noni anglatadi, ya‘ni, *xalq konseptosferasi* xalqning milliy madaniyati, xalq og‘zaki ijodi, ilmiy va badiiy adabiyotini o‘zida mujassam qiladi. Xalq ma‘naviy me‘rosi qanchalik boy bo‘lsa, milliy konseptosferasi ham shunga mos holda keng va boy hisoblanadi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “Evfemizmlarda milliy olam manzarasining ifodalanishi” deb nomalanadi va unda *olaning evfemik manzarasi va semantik maydon* kabi tushunchalar tahlili berilgan. Semantik maydon so‘z va iboralarni ma‘lum bir arxisema asosida birlashtiruvchi gruppadir. Masalan, “vaqt” semantik maydoni yil, oy, hafta, kun, inson hayoti, o‘tish davri kabi leksik, frazeologik birliklardan tashkil topadi<sup>35</sup>.

